



BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MATERIALLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Dilmurod Toshmurotov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti "Buxgalteriya hisobi" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Ulug'bek Tashmurotovich Eshmuradov

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0005-5325-9176

Annotatsiya: Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini boshqaruv va moliyaviy hisob nuqtai-nazaridan tadbiq etish, amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish hozirgi kundagi muammolardan hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari xo'jalik yurituvchi subyektlarida materiallar hisobini takomillashtirish o'zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlari, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o'zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallar hisobini tashkil etishning hozirgi holati, materiallarni baholash usullarining mazmuni nazariy o'rganilgan hamda amaliy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jalik yurituvchi subyektlar, materiallar hisobini tashkil etish, 4-son BHMS, materiallarni baholash usullari, FIFO usuli, AVECO usuli.

IMPROVING MATERIAL ACCOUNTING BASED ON INTERNATIONAL ACCOUNTING STANDARDS

Abstract. One of the current problems is the implementation of accounting in business entities from the perspective of management and financial accounting, ensuring its full implementation in practice, as well as its improvement taking into account the characteristics of business entities. The results of the scientific research conducted show that the improvement of materials accounting in business entities is in the process of formation and that not only its practical aspects, but also a number of theoretical and methodological issues are awaiting a positive solution. This article theoretically studies the current state of organization of materials accounting in business entities, the content of methods for evaluating materials and reveals them in practice.

Key words: Business entities, organization of materials accounting, NAS No. 4, methods of material valuation, FIFO method, AVECO method.

Kirish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallar hisobini moliyaviy hisobotda aks ettirilishi va uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha transformatsiyasi



atroflicha tadqiq qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha konseptual yo'nalishlar ishlab chiqilmagan. Bu esa bugungi kun talablariga javob beradigan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda. Shu jihatdan, muammoning nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobining muhim obyekti hisoblangan materiallar hisobini yuritish 4-son "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti¹¹⁰ asosida olib boriladi. Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar joriy aktivlar tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lgan materiallar xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida salmog'i, korxonalarining faoliyat sohasiga qarab, 60 foizdan 90 foizgacha bo'ladi.

Materiallar joriy aktivlar tarkibiga kirib, ular uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Mahsulot ishlab chiqarishda material aylanma mablag'larning ahamiyati va roli juda kattadir, ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklansa, ayrim hollarda umuman mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Shunday ekan, material aylanma mablag'larga ishlab chiqarishda nimalar kirishini aniqlab olish lozim. Materiallar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- **xom ashyo;**
- **urug'lik;**
- **o'g'itlar;**
- **yoqilg'i;**
- **ehtiyot qism;**
- **inventarlar;**
- **yem-xashak va h.k.;**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallardan samarali foydalanish bevosita buxgalteriya hisobini tashkil etishga bog'liq bo'lib, uning asosiy maqsadi joriy aktivlar harakatini dastlabki hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish hamda ularning ichki nazoratini ta'minlash, shuningdek, xarajat sifatida sarflashda samarali bo'lgan baholash usullarini qo'llash natijasida mahsulot tannarxini obyektiv tarzda shakllantirish hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallarni saqlanishini ta'minlash uchun ombor xo'jaligi tashkil etiladi. Omborlar umumiy va maxsus omborlarga bo'linadi. Umumiy omborlarda korxonalar ehtiyoji uchun zarur bo'lgan inventarlar, qop-qanorlar, idishlar va h.k. saqlanadi. Maxsus omborlar ma'lum turdagi zahiralarini

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar". 2020-yil 28-maydagi 24-son//lex.uz



saqlash uchun tashkil etiladi. Misol uchun: yoqilg'i ombori, o'g'itlar ombori va h.k.

Materiallarni saqlanishini ta'minlash yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarda omborlar tashkil etiladi. Ombor xo'jaligini tashkil etilishi, tegishli uskunalar bilan jihozlanishi uchun korxonalar rahbari mas'ul hisoblanadi. Omborda saqlanadigan zahiralar va mahsulotlar uchun ombor mudiri moddiy-javobgar shaxs hisoblanadi. Ombor mudiri ombor xo'jaligi hisobini yuritadi. Omborda saqlanadigan mahsulotlar yoki zahiralar holati va harakati ombor mudiri tomonidan «Ombor hisobi daftari» yoki «Ombor hisobi kartochkasi»ga yozib boriladi. Omborga qabul qilinadigan tovar-moddiy zahiralar «Materiallarni qabul qilish topshirish dalolatnomasi», «Yuk xati», «Schyot-faktura» va boshqa hujjatlar asosida qabul qilinadi. Ombordan tovar moddiy zahiralar «Limit-zabor kartasi», «Talabnoma», «Yuk xati» va boshqa hujjatlar asosida beriladi.

Hujjatlar aylanish grafigiga asosan ombor mudiri kirim va chiqim hujjatlarini ilova qilgan holda buxgalteriyaga «Tovar-moddiy zahiralar harakati to'g'risida hisobot» topshiradi.

Tahlil va natijalar

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo'lgan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, konstruksiyalar, detallar, idishbop materiallar, inventarlar, xo'jalik jihozlari va shu kabi qiymatliklarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish buxgalteriya hisobi schyotlar rejasidagi¹¹¹ quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

1010 "Xom ashyo va materiallar";

1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar";

1030 "Yoqilg'ilar";

1040 "Ehtiyot qismlar";

1050 "Qurilish materiallari";

1060 "Tara";

1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar";

1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari";

1090 "Boshqa materiallar".

Materiallar hisobda ikkita bahoning eng pasti bo'yicha materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda - haqiqiy tannarxi (sotib olish bahosi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo'yicha yoki bozor bahosi (sotishning sof qiymati) bo'yicha hisobga olinadi. Zarur hollarda (ishlatiladigan materiallarning nomenklaturasi katta bo'lganda, korxona ichida materiallarning harakati intensiv bo'lganda, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishida va boshqalarda) materiallar hisobi hisob bahosi bo'yicha yuritilishi mumkin. Hisob bahosi sifatida reja tannarxi, o'rtacha sotib olish narxlari, ulgurji va boshqalar qabul qilinadi. Materiallarni hisob bahosi bo'yicha hisobga olishda, har oy, haqiqiy tannarxi ko'rsatilgan bahosining qiymatidan farqlanish summasi va foizlari

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". 2024-yil 14-noyabr, 191-son. [//lex.uz](http://lex.uz)



hisoblab shiqiladi. Farqlar 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotida hisobga olinadi.

Materiallarning kelib tushishi 1510 "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" va 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotlaridan foydalanilgan holda (agar bu korxonaning hisob schyotida belgilangan bo'lsa) yoki ushbu schyotlardan foydalanilmagan holda aks ettirilishi mumkin.

Materiallarning ishlab chiqarishga yoki boshqa xo'jalik maqsadlariga haqiqatda sarflanishi (1000) materiallarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Materiallarni chetga sotish (1000) materiallarni hisobga oluvchi schyotlarning krediti va 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyotining debetida aks ettiriladi.

Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000)ning analitik hisobi saqlanish joylari va ularning alohida nomlari (turlari, navlari, hajmlari va boshqalar) bo'yicha yuritiladi.

"MEHR OQIBAT RAMZI" MChJda materiallarni kirimi va chiqimi bo'yicha buxgalteriya provodkalari tuzilgan. Ushbu hisobvaraqlar bo'yicha schyotlar bog'lanishining asosiylari quyidagilar:

1. Mol yetkazib beruvchi tashkilotlardan pul o'tkazish yo'li bilan materiallar qabul qilindi

Debet 6010 Kredit 5110-5530;

Debet 1010 – 1090 Kredit 6010.

2. Materiallar hisobdor shaxslar orqali sotib olindi

Debet 1010-1090 Kredit 4220.

3. Yaroqsiz hisoblangan mahsulotlardan olingan materiallar qabul qilindi

Debet 1090 Kredit 2610.

4. Materiallar haqiqiy tannarx bo'yicha omborga kirim qilindi (1500-hisobvaraqlar qo'llanilganda)

Debet 1010-1090 Kredit 1511.

5. Asosiy vositalarni tugatilishidan foydalanishga yaroqli materiallar kirim qilindi

Debet 1090 Kredit 9210.

6. Omborga qabul qilingan materiallar bo'yicha mol yetkazib beruvchilarga da'vo qo'zg'atildi

Debet 4860 Kredit 1010-1090.

7. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlarga materiallar sarflanganda

Debet 2010, 2310 Kredit 1010-1090.

8. Umumiy ishlab chiqarish va ma'muriy-boshqaruv ehtiyojiga materiallar sarflandi

Debet 2510, 9420 Kredit 1010-1090.

9. Yaroqsiz asbob-uskunalarini tuzatish uchun materiallar sarflandi

Debet 2610 Kredit 1010-1090.



10. Mahsulot sotish ehtiyojiga materiallar sarflandi

Debet 9410 Kredit 1060.

11. Inventarizatsiya natijasida materiallar kamomadi aniqlanib javobgar shaxslar hisobiga o'tkazildi

Debet 5910 Kredit 1010-1090;

Debet 4730 Kredit 5910.

12. Boshqa tashkilotlarga materiallar sotishga chiqarildi

Debet 9220 Kredit 1010-1090;

Debet 4890 Kredit 9220.

13. Materiallar bepul berildi

Debet 9220 Kredit 1010.

14. Materiallarni sotishdan moliyaviy natija aniqlandi:

a) foyda summasiga

Debet 9220 Kredit 9320.

b) zarar summasiga

Debet 9430 Kredit 9220.

15. Inventarizatsiya natijasida materiallarning oshiqqligi aniqlandi

Debet 1010-1090 Kredit 9390.

4-son BHMSga asosan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari va chiqib ketayotgan (shuningdek ishlab chiqarishga berilgan) tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

a) tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi bo'yicha;

b) o'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha (AVECO);

d) TMZ xarid qilingan vaqt bo'yicha dastlabki zaxiralar tannarxi bo'yicha (FIFO).

Xalqaro amaliyotda shuningdek, LIFO usuli ham qo'llaniladi.

Moliyaviy hisobotning "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" nomli 2-shakli 020-satrida "Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi" ko'rsatilgan bo'lib, uni hisoblash uchun sotishga tayyor mahsulot tannarxidan davr oxiridagi tovar-moddiy zahiralari tannarxi ayriladi va BHMSga ko'ra materiallar qiymati FIFO usuli va AVECO usullari bo'yicha topiladi.

Materiallarning har bir guruhi (turi) bo'yicha hisobot yili mobaynida qiymatni aniqlashning faqat bir usuli qo'llanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning guruhi (turi) bo'yicha qiymatni aniqlash usullaridan birini qo'llash hisob siyosatini qo'llash ketma-ketligiga yo'l qo'yishdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tashkilot tomonidan alohida tartibda foydalaniladigan (qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va hokazo) va bir-birining o'rnini bosmaydigan (ya'ni ular odatdagi holda bir-birini almashtira olmaydi), shuningdek maxsus loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va mo'ljallangan (ishlatiladigan) tovar-moddiy zaxiralar tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi usuli bo'yicha baholanadi. Ushbu usulda spesifik xarajatlar muayyan tovar-moddiy zaxiralarga taalluqli bo'ladi. Aks ettirishning



ushbu usuli, ular sotib olinganligi yoki ishlab chiqarilganligidan qat'i nazar, maxsus loyihalar uchun mo'ljallangan mahsulotlarga to'g'ri keladi.

AVECO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralar har bir birligining qiymati davr boshida aynan bir xil birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati va davr mobaynida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan aynan bir xil birliklarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar har bir birligi qiymatini AVECO usuli bo'yicha aniqlash tegishincha davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ining tannarxi va miqdori hamda ushbu davr mobaynida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va miqdoridan shakllanadigan, aynan bir xil birliklarning umumiy tannarxini ularning umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'rtacha qiymat tashkilot tomonidan tanlangan usulga qarab davriy yoki tovar-moddiy zaxiralarning har bir yangi partiyasi kelib tushishiga ko'ra hisoblab chiqarilishi mumkin.

FIFO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketayotgan birliklari tannarxiga birinchi navbatda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralarning qiymati kiradi, davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qiymati esa oxirgi bo'lib xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birliklarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Hisobot davri oxirida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash ularning chiqib ketishida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlashning qabul qilingan usuliga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishida ularning qiymatini aniqlashning qo'llanadigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Biz quyida "MEHR OQIBAT RAMZI" MChJ ma'lumotlari asosida yuqorida qayd etilgan usullarni qo'llagan holda hisob-kitoblarni olib boramiz. MChJda yil davomida quyidagi (1-jadval) materiallar sotib olindi:

1-jadval

"MEHR OQIBAT RAMZI" MChJda material lar qiymati¹¹²

Sotib olish sanasi	Miqdori, kg	Bir birlik materialning qiymati, so'm	Jami qiymat, ming so'm
20.09.2025	10000	4500	45000
04.10.2025	17000	4800	81600
26.10.2025	15000	5200	78000
Jami	42000	x	204600

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, "MEHR OQIBAT RAMZI" MChJ da 2025-yil davomida jami 204600 ming so'mlik materiallar xarid qilingan.

2-jadval

FIFO usuli bo'yicha materiallarni baholanishi

Materiallar sarfi	Miqdori, kg	Bir birlik materialning	Jami qiymat, ming so'm
-------------------	-------------	-------------------------	------------------------

¹¹² Muallif hisob-kitobi



		qiymati, so'm	
1-partiya	10000	4500	45000
2-partiya	17000	4800	81600
3-partiya	10000	5200	52000
Jami sarflandi:	28000	x	178600
Ombordagi qoldiq	14000		26000

2-jadvalda materiallarni FIFO usuli bo'yicha baholanish tartibini ko'rganimizda, bunda 2025-yilda qabul qilingan materiallarning 178600 ming so'mligi sarflanib, oy oxiriga 26000 ming so'mlik qiymatliklar "MEHR OQIBAT RAMZI" MChJ omborida qolgan.

1.3-jadval

AVECO usuli bo'yicha materiallarni baholanishi

Materiallar sarfi	Miqdori	Bir birlik materialning qiymati, so'm	Jami qiymat, ming so'm
1-partiya	10000	4500	45000
2-partiya	17000	4800	81600
3-partiya	10000	5200	52000
Jami sarflandi	28000	4871,4	136399,2
Ombordagi qoldiq	14000	4871,4	68199,6

"MEHR OQIBAT RAMZI" MChJ da materiallarni AVECO usuli bo'yicha baholaganimizda (3-jadvalda), bunda 2025 yilda qabul qilingan materiallarning 136399,2 ming so'mligi sarflanib, omborda 68199,6 ming so'mlik qiymatliklar qolganligi ma'lum bo'ldi.

Material birligining o'rtacha qiymati AVECO usulida quyidagicha aniqlanadi:
 $(204600 : 42000) = 4871,4$ so'm.

Yuqorida keltirilgan usullardan foydalanib sarflangan material tannarxi hamda yil oxirida zahiralarga taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlaymiz:

FIFO usuli bo'yicha:

Sotishdan olingan daromad	325000
Jami material tannarxi	204600
Hisobot davri oxirida material qoldig'i	26000
Sarflangan material tannarxi	178600
Yalpi foyda	146400

AVECO usuli bo'yicha:

Sotishdan olingan daromad	325000
Jami material tannarxi	204600
Hisobot davri oxirida material qoldig'i	68199,6
Sarflangan material tannarxi	136399,2
Yalpi foyda	188600,8

Ushbu hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, materiallarni baholashning turli xil



usullarini qo'llash sharoitida xo'jalik subyekting yalpi foydasi turlicha bo'lgan.

Xulosa va takliflar.

"MEHR OQIBAT RAMZI" MChJ da balans tuzishda FIFO usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki materiallar qiymati hisobot davri oxirida joriy bahoga yaqinroq bo'ladi va xo'jalik subyekti aktivlarini aniq aks ettiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xo'jalik subyektlarida materiallar hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar qilindi:

– tovar-moddiy zahiralarni qabul qilish, saqlash, ishlab chiqarishga berish va tayyor mahsulotlarni hisobga olish jarayonidagi buxgalteriya hisobi hujjatlari turkumlanib, bir-birini takrorlaydigan hujjatlar o'rniga, axborotlar to'laligini ta'minlaydigan hujjatlar taklif etildi;

– materiallarni harakati bo'yicha tuziladigan buxgalteriya provodkalari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tuziladi. ushbu yozuvlarni tartibga solish va soddalashtirish maqsadida, xo'jalik yurituvchi subyektlarda "transport – tayyorlov xarajatlari" nomli sintetik schet ochish va unda barcha materiallarni sotib olish va ishlab chiqarishga berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni alohida hisobga olib borib, materiallarni ishlab chiqarishga sarflanish salmog'iga qarab hisobdan chiqarish va buxgalteriya yozuvlari(provodkasi)ni olib borishni taklif qilamiz;

– **materiallarni baholashda FIFO usulni qo'llashni va uni "Korxonaning hisob siyosati"da aks ettirishni taklif qilamiz.**

Umuman olganda, materiallar hisobini takomillashtirish bo'yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan takliflar xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotiga joriy qilinsa, ular bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga katta yordam beradi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar". 2020-yil 28-may, 24-son. [//lex.uz](http://lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". 2024-yil 14-noyabr, 191-son. [//lex.uz](http://lex.uz)
3. Abdunazarova, S., Aliqulova, Z., & Eshmuradov, U. B. (2024). Agroklastarlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
4. Alikulov, A., Eshmuradov, U., Yuldashev, S., Raximova, U., Yorbekova, D., & Ishturdiyev, H. (2024). Improving cost accounting for sales of agricultural products. *World of Science*, 7(4), 160-169.
5. Alikulov, A., Eshmuradov, U., & Abdushukurov, K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).



6. Tashmurotovich, E. U. (2023). Improvement accounting of process realization in farm enterprises. *Journal of veterinary science*, 6(5), 20-28.
7. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.
8. Olimjanovna, J. D., & Tashmurotovich, E. U. (2024). CONCEPT AND ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN AGRICULTURAL CLUSTERS. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(3), 182-188.
9. Tashmurotovich, E. U. B., & Xaitovich, Y. S. (2024). G 'ALLACHILIK KLASSTERLARIDA TRANSFERT BAHO BELGILASHNI USULLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(01), 133-141.
10. Tashmurotovich, E. U. (2023). Improvement accounting of process realization in farm enterprises. *Journal of veterinary science*, 6(5), 20-28.